TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 28 - dekabr 587-10-138-Q/22 Zangiota tuman hokimligi

Zangiota tumanidagi qabristonlarda dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. Zangiota tumanida dafn etish joylarini saqlash qoidalari (keying o‘rinlarda - qoidalar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o`rinbosari v.v.b T.Boliqulov bir oylik muddatda Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qaroriga muvofiq Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini ishlab chiqib tasdiqlasin.

3. Tuman Qurilish bo`limi (B.Xolmatov), tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo’limi (J.Zaburov), tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo’limi (X.Nazirov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Razzaqov):

qoidalarning tegishli qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollar) bilan birgalikda doimiy targ‘ib qilib borilishi ta’minlansin.

4. Mazkur qaror “Istiqbol” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy

veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Safaraliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Tamikayev A. U.**

Zangiota tuman hokimining
2022 yil 28 dekabrdagi
587-10-138-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari

1. Qabristonlar bevosita tuman hokimligi tasarrufida bo‘ladi, ularni zarur holatda saqlash va obodonlashtirish vazifasi tuman hokimligiga yuklanadi.

2. Qabristonlarni obodonlashtirish, ob’ektlarini saqlash va ulardan foydalanishga, dafn etish xizmatlari ko‘rsatishga doir bevosita faoliyat tuman hokimligi tomonidan ta’sis etiladigan tuman obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta’mirlash, ularni zarur holatda saqlash, mablag‘larni xarajatlarning alohida moddasi bo‘yicha ajratgan holda, mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Bunda go‘rkovlar va marosim xizmatlari ko‘rsatuvchi xodimlar ta’minoti tuman hokimligi tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar uchun aholidan tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

4. Qabristonlarni saqlash va obodonlashtirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning xayrehsonlaridan ham foydalaniladi.

5. Qabristonlarni obodonlashtirish fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ko‘magida hashar yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

6. Qabristonlar hududini obodonlashtirish elementlariga qabristonlar hududini to‘siq bilan o‘rash, dafn joylari, yashil o‘simliklar, o‘tish joylari, xiyobonlar, yo‘llar va yo‘lkalar, xo‘jalik hovlilari, ma’muriy binolar va yordamchi imoratlar, muhandislik inshootlari va boshqalar kiradi.

7. Qabristonlar hududi to‘siqlar bilan o‘raladi hamda o‘zaro yo‘llar va xiyobonlar bilan bo‘lingan, tartib raqamlari qo‘yilgan sektorlarga, uchastkalarga bo‘linadi.